

IXTISOSLIK FANLARI BO‘YICHA INTERAKTIV USULDA CHET EL ZAMONAVIY TEXNIKALARNI O‘QITISH METODIKASI

Adizova Sevara Yusupovna

katta o‘qituvchi

Buxoro muhandislik- texnologiya instituti

Mirzoqulov Javlonbek

talaba

Buxoro muhandislik- texnologiya instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ixtisoslik fanlaridan chet el zamonaviy texnikalarni hamda yuqori texnologiyalarni interaktiv usulda o‘qitish metodikasi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Interaktiv usul, zamonaviy texnika, yuqori texnologiya, val-vtulka, tig‘izlik, uzatma, qo‘llanma, ta’lim sifati.

TEACHING METHODOLOGY OF MODERN FOREIGN TECHNIQUES IN AN INTERACTIVE METHOD FOR SPECIALIZED SCIENCES

Adizova Sevara Yusupovna

is a senior teacher

Mirzogulov Javlonbek

student

Bukhara Institute of Engineering and Technology

ABSTRACT

This article describes the methodology of interactive teaching of foreign modern techniques and high technologies in specialized subjects.

Keywords: Interactive method, modern technique, high technology, shaft-bush, density, transmission, manual, quality of education.

KIRISH

Respublikamizda ma’naviyatni yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish maqsadida katta ahamiyatga ega bo‘lgan nazariy va amaliy ishlar

amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarining yangilanayotganligi, fan kashfiyotlari va texnikani bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib borishi oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik fanlari o'qituvchilari o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilanib, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

METODOLOGIYA

Ma'lumki, respublikamiz mustaqillikka erishgach qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida turli rusumdagi xorijiy texnikalar kirib keldi. Albatta, bu texnikalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Har bir etishib chiqayotgan yosh kadr kirib kelgan xorijiy texnikalarni mukammal o'rganishi uchun uni ishlatish texnologiyasi, bizda mavjud shu tiplaridan farqlanishi va mexanizmlarini sozlash, rostlash hamda serviz xizmati ko'rsatish va tashkil qilishni nazariy va amaliy bilishlari lozim [1].

Xorijiy texnikalardan samarali foydalanishni o'rganish uchun maxsus adabiyotlar bilan birgalikda slaydlarga tushirilgan tasvirlar yoki video tasмага yozilgan harakatdagi ko'rinishlar ya'ni virtual stendlar mavjud bo'lib, dars jarayonida bulardan hozirgi zamonaviy texnik jihozlar orqali foydalanish mumkin.

Pedagogika fani texnik jihozlar orqali nazariy darslar o'tilganda tinglovchilar ko'rib eshitishda 70 foiz esda saqlashni ta'kidlaydi. O'rganuvchi dars jarayonida ko'rib eshitganlarini hammasini o'z konspekt daftariga yozib ulgurishi qiyin. Chunki, video tasma orqali dars o'tilganda kadrlar to'xtovsiz o'tib turadi. Bu kadrlarni ikki yoki bir necha bor takrorlab tursak unda belgilangan dars muddatida mavzularni to'liq o'tib tugatilmaydi [2].

Ko'rib eshitganini tez yozib ulgurishi uchun har bir talabaga yoki tinglovchiga mavzuga mos tarqatma material beriladi. Bu tarqatma materialga video tasmadagi tushirilgan ko'rinish va tushuntirishlarning asosiy bilishi lozim bo'lgan raqamlar, belgilar, o'zgarishlar va hokazolar ketma-ket keltirilgan bo'lishi kerak. Talaba dars jarayonida ana shu ko'rsatilgan jarayonlarni har biri to'g'risiga mos holda raqam yoki belgi qo'yib ketadi.

NATIJA

Ixtisoslik fanlari bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida amaliy darslarni to'g'ri tashkil qilish bilim olish sifatini yanada oshiradi."Kaminz" standarti bo'yicha amaliy darslarda talabalarning soni 6 kishidan oshmasligi kerak. Bu talabalar nazariy sinovdan o'tganlaridan so'ng amaliy dars quyidagicha tashkil etiladi. Talabalarga texnika xavfsizligi bo'yicha maxsus instruktaj o'tkazilgandan so'ng ishni bajarishga kirishadilar. Talaba darsni mustaqil bajarishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi [3]. Amaliy mashg'ulotlar asosan beshta ish joyida bajariladi. Birinchi ish joyida val-vtulka tipidagi detallar tig'izlik hisobiga biriktiriladi. 2-chi ish joyida silindrsimon uzatmalari ochish-yig'ish va geometrik parametrlari o'rganiladi. 3-chi ish

joyida kirmaksimon uzatmalarni ochib qayta yig'iladi va rostlanadi. 4-chi ish joyida dumalash podshipniklarning tuzilishi va qismlari o'rganiladi. 5-chi ish joyida sirpanish podshipniklarning tuzilishi va qismlari o'rganiladi. Ishni har bir talaba mustaqil bajarishi shart. Buning uchun ularga ishni bajarish uchun maxsus uslubiy ko'rsatma, reduktorlarni qismlarga ajratish va yig'ish texnologiyasi bo'yicha qo'llanma taqdim etiladi. Ishga kirishdan oldin video orqali ekranda ishni bajarish tartibi va kerakli kalitlar, o'lchov asboblari va maxsus moslamalarni qo'llash ko'rsatilib tushuntiriladi. Shundan so'ng talabalar reduktorni to'liq qismlar va detallarga ajratib qo'llanmaga ko'rsatilgan talabi bo'yicha o'zlari asbob va moslamalardan joy-joyidan to'g'ri foydalanib o'lchov asboblari yordamida mahkamlash, bolt va gaykalarni tarangligini tekshiradilar va rostlab reduktorni stendda o't oldirib sinab ko'radilar.

XULOSA

Sunday qilib ixtisoslik fanlari bo'yicha zamonaviy texnikalarni o'rgatishda interaktiv usul pedagogik texnologiyada qo'llanilishi talaba-o'quvchilarga o'rgatish kerak bo'lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko'rsatish orqali tez, aniq va to'g'ri tushuntirish imkoniyatini beradi va shu bilan birga yangi zamonaviy pedagogik texnologiya talablari asosida ta'lim samaradorligi oshganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Адизова С.Ю. Методика подготовки студентов к профессиональной деятельности на современных предприятиях // «Педагогическое образование» научно-исследовательский журнал. 2023, Том 4, №10 <http://po-journal.ru>
2. Adizova S.Yu., Urinov U.A. Pedagogical conditions for the development of students in industrial practice // Scopus journal. E3S Web of Conferences 284, 09017 (2021) TPACEE-2021 <https://doi.org/10. /e3sconf/1051202128409017>
3. Adizova S.Yu. On some ways to prepare students for professional activity in technical higher education institutions // ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com>